

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA HARAKATLI O'YINLAR VOSITASIDA VALEOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13949335>

Xudoyberdiyev Shuxrat Mamayusupovich,

Termiz davlat pedagogika instituti Jismoniy madaniyat va San'at fakulteti dekani.

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori dotsent.

Annotatsiya

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida harakatli o'yinlar vositasida valeologik madaniyatni shakllantirishda jismoniy tarbiya darslari o'quv rejaliari tahlil qilindi, unda choraklar bo'yicha bo'limlar soatlar taqsimoti, unda yosh avlodni jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishda jismoniy tarbiya oldida turgan vazifalar, harakatli o'yinlar turlari, ulardan foydalanib o'quvchilarni tarbiyalashga doir ma'lumotlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar

harakatli o'yinlar, jismoniy tarbiya, harakatli o'yinlar turlari, ijtimoiyma'naviy, anatomiq, fiziologik, psixologik, pedagogik, jismoniy ko'rsatkichlar, ta'lim-tarbiya tizimi.

Аннотация

В статье проанализирована программа занятий по физическому воспитанию при формировании вальеологической культуры средствами подвижных игр, в которой деление часов по четвертям, задачи, стоящие перед физическим воспитанием в развитии физических способностей подрастающего поколения. , мобильных видов игр, выделена информация по обучению учащихся с их использованием.

Ключевые слова

двигательные игры, физическое воспитание, виды двигательных игр, социально-духовные, анатомо-физиологические, психолого-педагогические, физические показатели, система воспитания.

Annotation

The article analyzes the program of physical education classes in the formation of valeological culture by means of outdoor games, in which the division of hours

into quarters, the tasks facing physical education in the development of the physical abilities of the younger generation. , mobile types of games, information on teaching students using them is highlighted.

Key words

movement games, physical education, types of movement games, socio-spiritual, anatomical, physiological, psychological, pedagogical, physical indicators, educational system.

Mavzuning dolzarbliji: Jahonda boshlang'ich sinf o'quvchilarida harakatli o'yinlar vositasida valeologik madaniyatni shakllantirish masalalari bilan YUNISEF, YUNESKOning "Butunjahon sog'lom turmush madaniyati forumi", "Bola huquqlari to'g'risida"gi konvensiyasi [15], "Ming yillik rivojlanish" hamda "Bolalar hayot kechirishi uchun maqbul dunyoni yaratish to'g'risida"gi Deklaratsiyalari, BMTning "Barqaror rivojlanish maqsadlari - 2030" dasturi [16], Erasmus + Carasity Building Project dasturi, IMEP loyihasi bola huquqlari sohasida xalqaro standartlarni shakllantirish, milliy qonunchilikda bolalar manfaatlarini muhofaza qilishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish ularning valeologik fazilatlarini shakllantirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Bu o'z navbatida, boshlang'ich sinf o'quvchilarida harakatli o'yinlar vositasida valeologik madaniyatni shakllantirishda ijtimoiy-ma'naviy muhitni barqarorlashtirish, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni ma'naviy tahdidlarga nisbatan mafkuraviy immunitetini mustahkamlash zarurati ortmoqda.

Dunyoda yoshlarning ta'lim va tarbiya olishlarida teng huquqni ta'minlash, ularning o'sib-ulg'ayishlari va farovonlikka ega bo'lishlari uchun jamiyat doirasidagi majburiyatlarini o'z zimmasiga to'liq olishiga erishish, fan-texnika rivojining strategik mo'ljallarini tanqidiy tahlil qilish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. YUNISEF, YUNFPA, Konsortsium (KBK), EFSC, "Gumanitar - huquqiy markaz" kabi tashkilotlar va tadqiqot markazlarining asosiy faoliyat yo'nalishlari bevosita mazkur muammo bilan bog'lanmoqda. Olingan natijalar esa boshlang'ich sinf o'quvchilarida harakatli o'yinlar vositasida valeologik madaniyatni shakllantirish mazmuni, pedagogik shart-sharoitlarini rivojlantirib borish, boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida o'quvchilarning individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda ularning salomatligini saqlash va mustahkamlashga qaratilgan ta'lif muhitini ta'minlaydigan choralar majmuasi va tizimli tadbirlar samaradorligi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darjasи. Mamlakatimizda boshlang'ich sinf o'quvchilarida harakatli o'yinlar vositasida valeologik madaniyatni shakllantirish, milliy qadriyatlar targ'iboti va ahamiyatini oshirish, me'yoriy-huquqiy ta'minotni takomillashtirish va moddiy-texnik sharoitlarni yaxshilashga qaratilgan islohotlar ta'lim-tarbiya jarayoni oldiga qo'yilgan ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalash maqsadini amalga oshirish imkoniyatini kengaytirdi. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarida harakatli o'yinlar vositasida valeologik madaniyatni shakllantirish tizimi samaradorligini oshirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Jamiyatning ijtimoiylashuv jarayonlarida yosh avlod ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish masalasi dolzarb muammolardan biri bo'lib kelgan. Zero, yangi davr shiddati ta'lim-tarbiya tizimiga ham o'zining aniq, qat'iy talablarini qo'ymoqda. Jamiyatning sog'lomligi esa o'sib kelayotgan yosh avlodning yuqori darajada sog'lom turmush madaniyatiga ega bo'lishini taqozo etadi. Shunga ko'ra, agar jamiyatda mavjud barcha institutlar tomonidan bolalar ma'naviy va jismoniy salomatligini muhofaza qilishga qaratilgan shart-sharoit yaratilsa, o'sha jamiyatda yashab, o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirish yuqori darajaga ko'tariladi, deyish mumkin.

Har bir sohadagi o'zgarishlar yurt ravnaqi, el umidi uchun xizmat qilar ekan, umumiyligi o'rta ta'lim sohasi ham bu yo'lda yetakchi sohalar qatoriga turadi. Inson yuksalishining ilk bosqichi, jamiyat bilan ilk tanishishda dastlabki qadam hisoblangan umumiyligi o'rta ta'limning jahon andozalariga mosligini ta'minlash, uning hozirgi rivojlanib borayotgan asr uchun talabga javob beruvchi muassasaga aylantirish shu soha xodimlari oldida turgan asosiy vazifalardan hisoblanadi. Xususan, umumiyligi o'rta ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, umumiyligi o'rta ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-sonli qarori[8] ushbu soha davlatimizning kelajagi uchun juda muhim va, ta'bir joiz bo'lsa, birinchi darajali masala ekanligini bildiradi.

Yurtimizda azal-azaldan odob-axloq va ta'lim-tarbiyaga katta e'tibor berilgan. Sharq allomalari, olim-u mutafakkirlar qadimdan adab ilmini chuqur o'rganib,

rivojlantirib kelishgan. Ayniqsa, har taraflama go'zal odobli, yaxshi xulqli va xayoli bo'lishga, nafsni poklashga buyuruvchi muqaddas dinimiz bu sohada ulkan o'zgarishlar sababchisidir. Hadislarda, allomalarining o'gitlarida inson ma'naviy kamolotining asosi bo'lgan odob-axloq va tarbiyaning barcha jihatlari o'z ifodasini topgan. Farzand - hayotning bezagi, oilaning quvonch-u shodligi. Farzand tabiatning ulug' ne'mati ekanligini bilamiz. Har qaysi inson o'z farzandining yaxshi, barkamol nasl bo'lib etishishini, voyaga etganda jamiyatda o'ziga munosib o'rinnegallab, Vataniga sodiq, el-u xalqining xizmatiga tayyor, vijdonli va diyonatli bo'lishini niyat qiladi. Har bir insonning o'zigagina xos imkoniyatlari mavjudligi va unga hamisha jiddiy e'tibor berish zarurligi haqida buyuk Sharq mutafakkirlari Ibn Sino, Forobiy, Beruniy, Mirzo Ulug'bek, Yusuf Xos Hojib ham o'z zamonlarida qimmatli fikrlarini alohida qayd etib o'tganlar. Yusuf Xos Hojibning "O'quv qayda bo'lsa, ulug'lik bo'lar, bilim qayda bo'lsa, buyuklik bo'lar", Mirzo Ulug'bekning "Ishga yarab qolsa ilming bir muddat, yana oshirmoqni aylagil shiddat", A.Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir", degan dono o'gitlarini eslatib o'tish o'rini [117]. Bola shaxsini tarbiyalash uchun, dastavval, uning "Betakror olamiga" kira olish va shunga mos keluvchi tarbiyaviy tadbirlar rejasini tuzish va qo'llash lozim. Chunonchi, Abu Nasr Forobiy o'zining izlanishlarida, "pedagogik muammolar va ular bilan bog'liq bo'lgan psixologik, fiziologik jihatlarni ijobiy hal etishda insonning aqliy bilimi, ma'naviyati, ruhi, intellektual va axloqiy xislatlari, xarakteri, dini, urf-odati, ma'lumoti tashqi muhit hamda boshqa insonlar bilan o'zaro muloqot jarayonida yuzaga kelishini, har bir inson o'z aqli, fikri, ruhiyu yuksalishi yordamida ularni egallaydi, ularga erishadi", - deya ta'kidlaydi [117]. Yosh bolalarning ta'lim va tarbiya olishidagi asosiy metodlardan biri bu o'yindir. O'yin maktabgacha bolalik davridagi yetakchi faoliyat bo'lib, o'yinlarda bolalarning tasavvurini boyitishning asosiy shakli rolli o'yinlarni tashkil etish hisoblanadi. Rolli o'yin elementlarini o'zlashtirish, qo'llash bolalarda yoshlikdanoq paydo bo'la boshlaydi. Rolli o'yinlarda bolalar kattalar bilan birga hayotga bo'lgan istaklarini qondiradilar va maxsus o'ynoqi shaklda ular kattalarning munosabatlari hamda ish faoliyatini qayta yaratadilar.

Shaxsning rivojlanishi va shakllanishida insoniyat bir qator bosqichlardan o'tadiki, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlari va naqshlari bilan ajralib turadi. O'qituvchi faoliyati inson rivojlanishining turli yoshdagagi bosqichlarini chuqur anglashga asoslangan bo'lsa, u shundagina o'quvchilarni tarbiyalash, o'qitish va tayyorlash vazifalarini muvaffaqiyatli bajaradi.

O'tmishdagi buyuk ma'rifatparvarlar tarbiya va tarbiyadagi yoshga bog'liq yondashuvga katta ahamiyat berishgan. Masalan, Ya.A.Komenskiy har bir o'qituvchi o'zi shakllantirgan shaxsning fazilatlari va xususiyatlarini bilishi kerak degan bo'lsa, tarbiyani faqat bolaning tabiatini bilan muvofiqlashtirish orqali bolaga samarali ta'lim berish mumkin, deb izoh bergen [116, b.78-460]. Yana bir mashhur ma'rifatparvar I.G. Pestalosi esa bolaga dars berishdan oldin, siz uni har tomonlama bilishingiz kerak, deb ta'kidlagan. Shundagina o'qituvchi uchun ham, o'quvchi uchun ham tarbiyaviy ishlar qiyinchilik tug'dirmaydi, ba'zan og'riqli bo'lmaydi, balki ijodiy, samarali va quvonchli bo'ladi [116, b.78-460]. A.C.Makapenko esa pedagogik g'oyalar bolaning psixologiyasini, uning pozitsiyasini va ijtimoiy muhitini, tengdoshlari va kattalar jamoasidagi mavqeyini chuqur anglashga asoslangan, deb ta'rif bergen[116, b.78-460].

Ta'limdagi muvaffaqiyatlar V.A.Suxomlinskiy fikricha, maktab o'quvchilarini o'qitish va tarbiyalashda uning shaxsni shakllantirish jarayoniga, shaxsning xususiyatlari va imkoniyatlarini inson yoshdagi davriga qarab rivojlanish qonuniyatlariga asoslanib, chuqur kirib borganligi bilan birlashtiradi. Bolalarning o'smir yoshiga bog'liq rivojlanish bosqichlarini biladigan o'qituvchi o'quvchining ichki dunyosini ko'ra oladi, uning munosabatlari, hissiyotlari, his-tuyg'ularini his qilgandagina u har doim ta'lim va tarbiya ishlarida muvaffaqiyat qozonadi, ayniqsa, o'rta maktab o'quvchilari uchun ayni muddao hisoblanadi. O'smir yoshning rivojlanish mezonlari tana holatining anatomik, fiziologik, psixologik, pedagogik, jismoniy ko'rsatkichlari hisoblanadi. Anatomik ko'rsatkichlarga, bilamizki, suyak, mushak, asab, miya, yurak-qon tomir, reproduktiv tizimlarning rivojlanishi, fiziologik parametrlar esa nafas olish, qon aylanish, ichki bezlar, asab tizimi va boshqalar faoliyati kiradi. O'qituvchi bilishi kerakki, olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarda xuddi shu faoliyatlar davrida asab hujayralarining faolligi tezda pasayadi, bu esa o'quvchini passivlikka, charchashga olib keladi. O'smir yoshini rivojlantirishdagi psixologik mezonlar esa sezgi, idrok, xotira, tasavvur, e'tibor, fikrlash va nutq, temperament va xarakter, qobiliyat va boshqa psixologik xususiyatlar, shuningdek, shaxsiyat xususiyatlarini o'z ichiga oladi [116, 78-b.].

Har bir yosh uchun jismoniy ko'rsatkichlar aniq emas, sababi ular nisbiy xarakterda bo'lib, ijobiy rivojlanish tendensiyasini saqlab, turli xil tarixiy rivojlanish davrlarida o'zgarib turadi. Ushbu ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi: bolaning o'sishi, vazni, ko'krak hajmi, mushaklarning kuchi, vosita qobiliyatları va boshqalarni aytib o'tish mumkin. O'smir yoshni rivojlantirishning pedagogik mezonlari tarbiya, ta'lim va tarbiya imkoniyatlarini tavsiflaydi, inson hayotining

turli davrlarida aqliy, mafkuraviy, siyosiy, axloqiy, mehnat va politexnik, estetik va jismoniy tarbiya imkoniyatlarini belgilaydi. Inson rivojlanishining yosh davrlarini ajratish uchun anatomik, fiziologik, jismoniy, psixologik va pedagogik ko'rsatkichlar majmui qo'llaniladi. Ba'zi ko'rsatkichlar ushbu yosh davrida yetakchi hisoblanadi, boshqalari esa zanjir singari bog'liq bo'lib turadi. O'quv faoliyati insonning intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy fazilatlarini shakllantirish mazmuni hamda xususiyatlarini belgilaydi.

Tahlil natijalari. Maktab o'quvchilarining eng yoshi 7-10 yoshgacha hisoblanadiki, bu shaxsiyatni rivojlanirishning eng qiyin va ziddiyatli davri bo'ladi. Maktab ostonasiga o'tgan olti yoshli bola, asosan, jismoniy va aqliy fazilatlari bo'yicha maktabgacha bo'lgan tarbiyaga ega bo'ladi, 4-sinfga kelib, u bu yoshga xos bo'lgan qarama-qarshiliklar va qiyinchiliklarga ega bo'lgan o'spirin xususiyatlariga duch keladi. O'smir bolaning yaxshi o'qiy olishi, uning tarbiyasida nizoli vaziyatlar vujudga kelmasligi uchun bu yoshning bolaning fiziologik xususiyatlariga emas, balki boshlang'ich maktabda o'tadigan hayot yo'liga, unda shakllanadigan shaxsiy xususiyatlariga e'tibor qaratish lozim. O'qituvchi dasturiy bilimlar, ko'nikmalar, rejalar va tarbiyaviy ishlarning tadbirlarida aks ettirilgan maxsus ta'lim va tarbiya tizimiga asoslanadi. Ushbu ta'sirlar obyektiv xususiyatga ega, bu erda bola tarbiya obyekti vazifasini bajaradi. O'qitish va ta'lim dasturlari boshlang'ich maktab o'quvchisining ma'lum bir intellektual, axloqiy, estetik, mehnat, jismoniy rivojlanishini ta'minlaydi. Zero, yosh o'quvchilar bir xil o'quv dasturlariga hamda maktabda o'qitish va tarbiyalash sharoitlariga qaramay, har xil ma'lumotlarga, turli ko'rsatkichlarga ega bo'lishadi, har xil tarbiyalanadilar va o'quv vazifalariga boshqacha munosabatda bo'ladilar. Har bir bola o'zida turli xususiyatlarni namoyon qiladi, ularning nisbati uning shaxsiyatini belgilaydi. Har bir bola nafaqat o'qituvchining ko'rsatmalari va talablariga binoan, balki uning rivojlanayotgan shaxsning bilimlariga muvofiq ham harakat qiladi. Shu munosabat bilan maktabda bola o'zini ta'lim oluvchi sifatida namoyon qiladiki, bunda chuqur g'oyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'qituvchi maktabdagi o'quv-tarbiya jarayonini doimiy ravishda o'quvchining ko'zi bilan ko'rishi kerak. Mazkur jarayon nafaqat o'qituvchining qanday bilimlarni berishiga, balki har bir o'quvchining olgan bilimlari, o'quvchi uchun nafaqat bilimga bo'lgan obyektiv ehtiyoj, balki bolaning bu bilimga subyektiv munosabati hamda o'quv natijalarini obyektiv ravishda baholabgina qolmay, balki har bir o'quvchining fikrlashining o'ziga xosligini ko'ra bilishi; o'quv tadbirlarini tashkil qilish va o'tkazish bilan chegaralanib qolmay, balki ularning ijobjiy, neytral yoki, ehtimol, o'quvchining axloqiy xususiyatlariga salbiy ta'sirini ham ko'ra olishi zarur. Bunday yondashuv

o'qituvchiga ijodiy xarakter beradi va bu uning pedagogik mahoratining tarkibiy qismiga aylanadi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki. Pedagogika fani insonda sog'lom turmush tarzini shakllantirishga va normal salomatlikka yo'naltirilgan tarbiyaning mazmun va mohiyatini, valeologik ta'lim texnologiyalarinig maqsad va vazifalarini ishlab chiqadi. Shuningdek bir qator ijtimoiy fanlar: sotsiologiya, falsafa, madaniyatshunoslik, iqtisod kabi fanlar ham salomatlikni saqlash va mustahkamlashni ijtimoiy falsafiy jihatlarini belgilab beradi hamda salomatlikni saqlashda iqtisodiy omilning zaruriyatini va valeologik madaniyat shakllanishini taminlaydi.

FOYDANANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. Darslik. -T., 2004. – 72 b.
2. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. Saylanma. 1-jild. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, 1993. – 304 b.
3. Ne'matov B.I. Bolalar-o'smirlar sport maktablarishug'ullanuvchilarini g'ovlar osha yugurish texnikasiga o'rgatish metodikasini takomillashtirish: ped.fan.nom.diss.-Ch., 2019.-100 b.
4. Ne'matov B.I. Bolalarni to'siqlar osha yugurishga o'rgatish. Uslubiy tavsiya. – T.: O'zDJTI, 2011. –40 b.